

ABDULLA ORIPOVNING “BAHOR KELAYOTIR” SHE’RI TAHLILI

Yulduz Olimova

Xalqaro innovatsion universitet talabasi

Ilmiy rahbar: Nurali Murodillayev, XIU o‘qituvchisi

Annotatsiya. She’rda bahorning iliq nafasi, uning tozalik va yangilanish olib kelishi aks ettirilgan. O‘quvchi she’rni o‘qir ekan, tabiatning uyg‘onishini, yurakda paydo bo‘ladigan yangi his-tuyg‘ularni his qiladi. Bahor nafaqat tabiatning, balki inson qalbining ham yangilanish davri ekani ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: tabiat, bahor, pokizalik, ezgulik, falsafiylik.

Abstract. The poem reflects the warm breath of spring, its purity and renewal. Reading the poem, the reader feels the awakening of nature, new feelings arising in the heart. It is emphasized that spring is a time of renewal not only of nature, but also of the human soul.

Keywords: nature, spring, purity, goodness, philosophy.

She’r bahorning kelishi, uning tabiat va inson ruhiyatiga olib keladigan yangilanishi haqida bo‘lib, unda bahor hayotning uyg‘onishi, yangi umidlar, sof havo va beg‘ubor tuyg‘ular bilan bog‘liq fasl sifatida tasvirlangan. Muallif bahorni nafaqat tabiat hodisasi, balki inson qalbining yangilanishi, tozalanishi va yangi imkoniyatlar ramzi sifatida tasvirlaydi. She’rda bahorning iliq nafasini, shamollarning erkin va shodon harakatini his qilish mumkin.

She’r to‘rt banddan iborat bo‘lib, har bir band bahorning turli jihatlarini yoritadi. Misol uchun bahorning kelishi, uning sof havosi, shoirning bahorga bo‘lgan mehr-muhabbati va uning insonga bergan iliqligi ta’kidlanadi. Shu asnoda bahorning tez o‘tishi va shu bilan birga inson umriga bog‘liq ramziy ma’nolar beriladi. She’rda badiiy san’at vositalari keng qo‘llangan bo‘lib, ular she’rning ohangdorligi va ifodaviyligini oshiradi.

Metafora (o‘xshatish va ramziy ma’nolar). Metaforalar she’rda bahorning inson hayotiga bog‘liq jihatlarini kuchliroq his qilish imkonini beradi. “Bahor – eng pokiza shabbodadir bu” misralarida bahorning nafosati va pokizaligi ta’kidlangan bo‘lsa, “Bahor – eng pokiza shamoldir demak” misralarida shamol bahor bilan sinonim sifatida qo‘llanib, bahorning inson ruhiyatiga tozalovchi ta’sir ko‘rsatishi aks ettirilgan.

Tashxis (jonlantirish). Tabiat hodisalari jonlantirilib, ularga insoniy xislatlar berilgan:

“Moviy kengliklarda o‘ynaydi shamol” – shamolning harakati bolalar o‘yiniga o‘xshatilgan.

“*Daralar qo‘ynida zangor bir havo*” – havo go‘yo daryolarning bag‘rida yotib, tabiat bilan uyg‘unlashgani tasvirlangan.

“*Bahor-ku o‘tadi shamoldek shitob*” – bahor shamol kabi o‘tkinchi ekani bilan ta’riflangan.

Qiyoslash va obrazlilik. She’rda tabiat hodisalari insoniy tuyg‘ular bilan bog‘lanadi. Shoir bahorning nafasini go‘dakning nafasi bilan taqqoslash orqali uning mayinligi va beg‘uborligini “*Go‘dak nafasiday yupatar yuzni*” misrasi orqali ifodalagan bo‘lsa, insonning bahorga bo‘lgan tashnaligi va orzularini “*Qish bo‘yi intizor kutgan bahorim*” misrasida aks ettirgan.

Shu bilan birga she’rning falsafiy va chuqur ma’nolaridan biri o‘qirmanlarga bahor orqali inson hayoti va umrining tez o‘tishi haqidagi fikrni yetkazishdir. Bahor – yoshlik, umid va beg‘uborlik timsoli. Ammo bahor qanday tez kelgan bo‘lsa, xuddi shunday tez o‘tib ketadi. She’rning so‘nggi bandi inson hayotining sof va toza bo‘lishini tilash bilan yakunlanadi:

“*Azizim, umringda havo bo‘lsin sof,*

Umring shamollari muattar bo‘lsin”. Bu misralarda inson hayotining bahordek beg‘ubor bo‘lishi, hayot yo‘llari esa sof va toza shamollarga o‘xshashi orzu qilinadi. Bu nafaqat bahorni madh etish, balki insoniyatga qilingan go‘zal bir tilak hamdir.

Ushbu she’r tahlilidan xulosa shuki, “Bahor kelayotir” she’ri lirik, ta’sirchan va chuqur falsafiy mazmunga ega. U faqat tabiat hodisasi haqida emas, balki inson hayoti, tuyg‘ulari va umidlari haqida ham so‘zlaydi. She’rning badiiy vositalar orqali ifodalangan go‘zalligi, samimiy ohangi va insoniylik falsafasi uni yanada mazmunli va o‘qishli qiladi. Bu she’r bahor kelishini inson ruhiyatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘lab, hayotiy xotirjamlik va ezgulik sari intilishni ifodalaydi. Ushbu she’rni o‘quvchiga shijoat, ilhom va yangi orzular bag‘ishlovchi she’r sifatida baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Oripov. Saylanma. – Toshkent: 2018.
2. Afoqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san'atlar: – Toshkent: 1997.
3. Ashurova G. Abdulla Oripov she'riyatida an'ana va badiiy falsafa (obraz, g'oya va tasvir). – Toshkent: 2008.
4. Begimqulov D. She'riyatimiz yulduzi. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: 2000.
5. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 1989-yil, 23-iyun soni